

Tekshiruv diktantini o'tkazish



Reja:

- ***1. Diktant turlari ustida ishlash.***
- ***2. Tekshiruv diktanti o`tkazish.***
- ***3. Nutqiy xatolar ustida ishlash.***

Partada to'g'ri o'tir!




ALIFBO


Aa (a) <i>Aa</i>	Bb (be) <i>Bb</i>	Dd (de) <i>Dd</i>	Ee (e) <i>Ee</i>	Ff (ef) <i>Ff</i>	Gg (ge) <i>Gg</i>
Hh (he) <i>Hh</i>	Ii (i) <i>Ii</i>	Jj (je) <i>Jj</i>	Kk (ke) <i>Kk</i>	Ll (el) <i>Ll</i>	
Mm (em) <i>Mm</i>	Nn (en) <i>Nn</i>	Oo (o) <i>Oo</i>	Pp (pe) <i>Pp</i>	Qq (qe) <i>Qq</i>	
Rr (er) <i>Rr</i>	Ss (es) <i>Ss</i>	Tt (te) <i>Tt</i>	Uu (u) <i>Uu</i>	Vv (ve) <i>Vv</i>	
Xx (xe) <i>Xx</i>	Yy (ye) <i>Yy</i>	Zz (ze) <i>Zz</i>	O'o' (o') <i>O'o'</i>	G'g' (g'e) <i>G'g'</i>	
Sh sh (she) <i>Sh sh</i>	Ch ch (che) <i>Ch ch</i>	Ng ng (nge) <i>Ng ng</i>	/' (tutuq belgisi)		

EDUCATION



2 chiziqli daftar namunasi

- 
- ***Diktant*** eshitib idrok qilingan so'z, gap, matnni yozishdir. O'quvchilarning og'zaki yozma nutqini o'stirishda, savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. O'quvchi diktant yozish jara-yonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklariga bog'liq bo'ladi. Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Demak, savodli diktant yozish uchun o'z navbatida grammatik qoidalarni ham bilish zarur.

- 
- Boshlang'ich sinflarda diktant uchun matn tanlashda bir qancha tamoyillarga rioya qilish zarur:
 - *Matnning monologik nutq shaklida bo'lishi. Unda ko'chirma gaplar, undalmali, kirish so'zli, ajratilgan bo'lakli gaplar, qo'shma gap bo'lmasligi lozim.*
 - *Matn hajmi 1—4-sinf o'quvchilarining o'qish sur'tiga asoslangan bo'lishi.*
 - *Matn mazmuni bolalar hayoti bilan bog'liq bo'lishi*
 - *Diktant matni o'quvchilarga u yoki bu haqda bilim berishi.*
 - *Tanlangan matn g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak bo'lishhi, olablar hissiyotiga ta'sir qilishi.*
 - *Matn tarbiyalovchi xarakterda bo'lishi.*
 - *Matnda o'rganilayotgan hodisa kamida 5—6 marta uchrashi.*


Diktant turlari

Ta'limiy diktantlar—
bilim berishga
yo'naltirilgan diktantlar.

Tekshiruv diktantlari —
o'quvchilarning bilim,
ko'nikma va malakalarini
nazorat qilishga qaratilgan
diktantlar.




- Ta'limiy diktantlarni o'tkazish vaqtini, o'rnini, turini o'qituvchining o'zi belgilaydi. Ta'limiy diktantlar uchun darsning ma'lum bir qismi (5—10 daqiqasi), ba'zan bir dars ajratiladi. Bu diktant o'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.



Ta'limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- Ta'kidiy diktant.
- O'z diktant yoki yoddan yozuv diktanti.
- Izohli diktant.
- Saylanma diktant.
- Erkin diktant.
- Rasm diktant.
- Lug'at diktant.
- Ijodiy diktant

- 
- Tekshiruv diktantida yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o'quvchilar qay darajada o'zlash- tirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo'lim o'rganilgandan so'ng yoki chorak oxirida o'tkaziladi. Tekshiruv diktanti o'quv yili davomida 5—6 marta o'tkaziladi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan xatolar Chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta'limiy ahamiyati katta. Imloviy mashq sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalaniladi.